

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONGA BOSQINCHILIK YURISHLARINING SABABLARI VA MAQSADLARI

Ermuxammadov Ozodbek Ermuxammad o'g'li

Oriental universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431054>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rossiya va Angliya imperiyasi manfaatlarining O'rta Osiyoda to'qnashuvi, ushbu davrda yuzaga kelgan tarixiy shart-sharoit, Rossiyaning Turkistonni bosib olishdan ko'zlagan asosiy sabablari, maqsadlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Angliya va Rossiya raqobati, o'zbek xonliklari, Rossiya sanoati, paxta xom ashyosi, to'qimachilik sanoati, bosqinchilik urushi.

REASONS AND GOALS OF THE INVASION OF THE RUSSIAN EMPIRE INTO TURKESTAN

Abstract. This article provides information about the conflict of interests between Russia and the British Empire in Central Asia, the historical conditions that arose during this period, the main reasons and purposes of Russia's occupation of Turkestan.

Key words: competition between England and Russia, Uzbek khanates, Russian industry, raw cotton, textile industry, war of conquest.

ПРИЧИНЫ И ЦЕЛИ ВТОРЖЕНИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАН

Аннотация. В данной статье представлена информация о конфликте интересов России и Британской империи в Средней Азии, исторических условиях, возникших в этот период, основных причинах и целях оккупации Россией Туркестана.

Ключевые слова: конкуренция Англии и России, узбекские ханства, российская промышленность, хлопок-сырец, текстильная промышленность, завоевательная война.

Markaziy Osiyodagi o'zbek xonliklari dunyodagi yirik davlatlar, jumladan, Angliya va Rossiyani xomashyosi, yer osti boyliklari, arzon ishchi kuchi, qulay geografik o'rni va tashqi bozor ekanligi bilan o'ziga tortar edi. Ushbu omillar sababli Angliya va Rossiyaning mustamlakachilik manfaatlari Turkistonda to'qnashdi.

Angliyaning Turkiston xususida yuritgan siyosatidan ko'zlagan asosiy manfaati va maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lib, ular:

- Turkistonni bosib olishga intilayotgan Rossiya imperiyasining rejalarini barbad qilish;
- xonliklar va amirlikni Rossiyaga qarshi birlashtirish;
- o'zbek xonliklarini «betaraf maydon» sifatida saqlab qolish;
- Turkiston bozorlarini egallash edi.

Buyuk Britaniya o'z mustamlakasi bo'lgan Hindiston, shuningdek, Afg'oniston orqali o'zbek davlatlari bilan savdo-sotiq qilar, rus savdogarlarini Turkiston bozorlaridan siqib chiqarishga harakat qilar edi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasining Turkistonga ko'z olaytirayotganligini sezgan ingliz hukumati Rossiya chegaralari Afg'onistonga yetib bormasligiga intilayotgan edi. Angliya o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qildi. Masalan, Rossiyaning Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish rejalaridan xabar topgan Angliya Buxoro, Xiva va Qo'qonga o'z emissarlarini (1825 M.Murkroft, 1832 yil Aleksandr Byorns, 1844 yil I.Volf, 1843 yil Jeyms Ebbot 1842 yil

Ch.Stoddart va A.Konolli) yuborib, ularni birlashtirishga, hech bo'lmasa, Rossiyadan birgalikda muhofazalanish uchun bitim tuzishga chaqirdi. Sababi, Angliya o'z mustamlakalarini Rossiyadan himoya qilishni yengillashtiradigan, bu ikki davlat mustamlakalari o'rtasida mustahkam to'siq bo'ladigan "betaraf maydon" kerak edi. Afsuski, o'sha paytda Turkistondagi hukmdorlarga Angliyaning takliflaridan milliy manfaatlar yo'lida foydalanishda donolik va zukkolik yetishmadi. Ularga bu masalada o'zaro adovat, manmansirash, dushmani mensimaslik, xudbinlik va kaltabinlik halal berdi. Oqibatda, Rossiyaning xonliklarni birin-ketin bosib olishi uchun qulay imkoniyat tug'ildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va undan katta foyda olish uchun rus burjuaziyasiga arzon xomashyo va ularni sotish uchun bozor kerak edi. Ilg'or mamlakatlar Rossiya tovarlarining Yevropaga kirib kelishidan manfaatdor emas, shu bois, bunga qarshilik ko'rsatar edilar. Ayni paytda Rossiya tovarlari sifati past bo'lganligi uchun ular bilan raqobatlasha olmas edi. Shu sababli Rossiya bozorni boshqa mintaqalardan, ya'ni iqtisodiy jihatdan kam taraqqiy etgan mintaqalardan izlashi kerak bo'lib, Turkiston bu ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan qulay hudud edi. Shu bilan birga, Angliyaning o'z mustamlakalari orqali asta-sekin O'rta Osiyo bozorlarini ham egallay boshlaganligi Rossiyani tashvishga solayotgan edi.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan sanoati, jumladan, yengil sanoat tobora ko'proq paxta xomashyosiga ehtiyoj seza boshladi. Vujudga kelgan vaziyatning keskinlashuviga, jumladan AQShdagi fuqarolar urushi tufayli, u yerdan Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun xarid qilinadigan paxta hajmining bir necha barobar kamayishi va 1860–1864-yillarda Buxoro amirligidan sotib olinadigan paxta xomashyosi xarid narxlarining besh barobar oshib ketishi ham sabab bo'ldi. Bu hol Rossiya sarmoyadorlarini tashvishga solib qo'ydi. Ularning nufuzli vakillari ushbu muammoni hal qilish vazifasini hukumat oldiga qat'iyat bilan qo'ya boshladilar. Mazkur omillar Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi jarayonlarining tezlashuviga sabab bo'ldi.

Rossiyaning Turkistonni bosib olishdan ko'zlagan asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

1. Rossiyaning tez rivojlanib borayotgan yengil sanoati uchun arzon paxta xomashyosi va yer osti boyliklari zaxirasiga ega bo'lish.
2. Rossiya imperiyasi sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun har tomonlama qulay bo'lgan Turkiston bozorlarini egallash.
3. Rossiyada o'tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini ko'chirib keltirish va ularni yer bilan ta'minlash.
4. 1853–1856-yillardagi Qrim urushi tufayli Qora dengiz bandargohlarining qo'ldan ketishi oqibatidagi yo'qotishlar o'rnini Turkistonni egallash bilan to'ldirish. O'rta Osiyo orqali janubdagi dengizlarga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritish va bu bosqinchilik yurishlarida Turkistondan istehkom (platsdarm) sifatida foydalanish.

Shuni ta'kidlash joizki, har ikkala davlat, Angliya ham, Rossiya ham faqat o'z mustamlakachilik manfaatlari yo'lida barcha usullarini qo'llashga tayyor edilar. Rossiya imperiyasining hukmron doiralari o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirish uchun talonchilik, bosqinchilik urushi yo'lini tanladi. Shu yo'l bilan bu ikki imperiya o'z hukmini o'tkazib boylik orttirdilar va hududini kengaytirdilar. Mustamlakaga

aylangan davlatlar esa ularga qaram bo'lib taraqqiyotdan ortda qolib ketdilar va zulm ostida yashadilar.

XIX asrning 30–40-yillarida Angliyaning O'rta Osiyoga suqilib kirishi kuchaya boshladi. Angliya mollarining bu xonliklarda tobora ko'p sotilishi natijasida rus sanoati mahsulotlari siqib chiqarila borildi.

O'rta Osiyodagi savdo-sotiqning bu holatini ko'rgan rus sanoatchilari va savdogarlari tashvishga tushib qoldi. 50-yillarning oxirida Tashqi ishlar ministrligiga yuborilgan maktubda Rossiyaning O'rta Osiyodagi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan edi. Maktubda rus savdosi uchun "ikkita noqulaylik" borligi ko'rsatib o'tildi: "Mollarni sotishda va savdogarlar hissasiga to'g'ri keladigan foydalarning hammasi nuqul O'rta Osiyo savdogarlarining qo'liga tushmoqda; rus mollari O'rta Osiyodagi iste'molchilarga juda arzon narxlar bilan yetkazib berilmoqda. Ammo, rus savdogarlarining raqobati bo'lmaganligi va o'rta osiyoliklar bilan to'qnashuvlar mavjudligi sababli iste'molchilar O'rta Osiyoda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni nisbatan qimmat narx bilan sotib olmoqdalar". Maktubning oxirida o'zbek xonlari rus savdogarlarining mollaridan o'zlari-istagancha boj olayotganliklari sababli 1852-yildan boshlab ularning O'rta Osiyoga safari ancha kamayib ketganligi, rus savdo va sanoat firmalari esa, Qozon va Ufa savdogarlarining vositachiligidan foydalanishga majbur bo'lib qolayotganligi ko'rsatilib, imperiya hukumatiga O'rta Osiyo savdogarlariga homiylik qilishni to'xtatish va O'rta Osiyoda rus savdogarlarining ish olib borishi uchun qulay shart-sharoit vujudga keltirishga erishish tavsiya qilindi.

40–50-yillarda Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi tovar oborotining kamayib ketish xavfi tug'ilganligi rus kapitalistlarini va savdogarlarini, birinchi galda, Moskvadagi to'qimachilik fabrikalarining xo'jayinlarini hukumatga qilinayotgan tazyiqni kuchaytirishga va undan o'zbek xonliklariga nisbatan qattiqroq siyosat yuritishni talab qilishga majbur etdi. Rus burjuaziyasi O'rta Osiyodagi ahvolni qanchalik diqqat bilan kuzatib borganligini va o'zining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilib turganligini Moskva kapitalistlarining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri P.V. Golubkovning faoliyatidan bilish mumkin. Golubkov inglizlarning raqobat qilish xavfi tug'ilayotganligini ta'kidlab, rus sanoatchilari va savdogarlarini ko'proq uddaburonlik bilan ish ko'rishga chaqirib murojaat qildi. Jumladan, u 4 mln so'mga ega bo'lgan "Rossiya–Osiyo savdaxonasi" nomli aksionerlik savdo kompaniyasi tuzish loyihasini taqdim etdi. Bu loyihadan kutilgan maqsad Sharqda, birinchi navbatda, O'rta Osiyoda rus savdosining yetakchilik mavqeyini ta'minlash hamda O'rta Osiyodan inglizlarni siqib chiqarish edi. Rus kapitalistlari orasida Golubkov yolg'iz emas edi. O'rta Osiyo bilan savdo aloqasida bo'lgan taniqli rus savdogari F.R. Pichugin O'rta Osiyo bilan savdo-sotiq qilish va uning foydalari to'g'risida 40-yillarda bir qancha maqolalar yozib, rus mollari o'zbek xonliklariga olib borib sotishni yanada kengaytirish kerakligini ta'kidladi va hukumatni bu ishga har tomonlama yordam berishga da'vat qildi.

XIX asrning 40-yillarida imperiya hukumati xonliklar bilan savdo munosabatlarini yengillashtiruvchi bir qancha chora-tadbirlar ko'rdi. Chunonchi, O'rta Osiyodan keltirilayotgan hamma mollardan faqat bir protsent boj olish tartibi belgilandi. 1848-yilda hukumat Rossiyada ishlab chiqarilgan mollarning hammasidan Mang'ishloqda boj olishni bekor qildi va rus savdogarlari mol ayirboshlash yo'li bilan bimalol savdo qilish huquqini oldilar.

XIX asrning 40–50-yillarida imperiya mazkur xonliklarning hududlarini to‘la ravishda qo‘shib olish yo‘liga kirishga hali jur‘at qilolmas edi. Yevropada 1848 yildagi revolyutsion voqealar va Qrim urushi (1853–1856-yillar) sababli Rossiyaning umumiy xalqaro ahvoli O‘rta Osiyoda istilochilik rejalarini amalga oshirishga imkon bermas edi. Imperiya diplomatlarining faoliyati kuchayganligi natijasida xonliklarning siyosiy-iqtisodiy holatini, O‘rta Osiyodagi karvon yo‘llarini va shu kabi masalalarni keng o‘rganish boshlandi.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Rossiya imperiyasi o‘z iqtisodiyotini kuchli iqtisodiy siyosat yuritish, ishlab chiqarishda yuksak fan va texnologiya yutuqlarini qo‘llash, erkin raqobat muhiti, bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida rivojlantirish yo‘li bilan emas, balki boshqa davlatlarga talonchilik, bosqinchilik yurishlari uyushtirib, mustamlaka qilingan mamlakatlar xalqlarini shavqatsiz ekspluatatsiya qilish, ulardan xom ashyoni arzonga olib, tovarga aylantirib o‘zlariga qimmatga sotib boyishni afzal ko‘rdilar. Keyinchalik O‘rta Osiyo bozorlarini ham egallab olib, o‘z sanoat mahsulotlari bilan mahalliy hunarmandlarni kasod qildilar hamda tub aholi vakillarni qarzgа botirdilar. Bu borada ular Buyuk Britaniya imperiyasidan qolishmaydigan darajada harakat qildilar.

Zero, G.Grotsiy ta‘kidlaganidek, Vatan himoyasi uchun qilingan urush adolatli urush bo‘lib, boylik orttirish uchun olib borilgan urush sharmandalikdan o‘zga ish emas.

REFERENCES

1. Абашин С.Н., Арапов Д.У., Бекмаханова Н.Е. Центральная Азия в составе Российской империи. – М.: Новое литературное обозрение, 2008.
2. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865–1917). – М.: «Наука» 1980.
3. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: “Фан”, 2008. – 151 б.; N.U.Musaev, Z.A. Saidboboev, G.N.Saidboboeva History of constructing of electric stations and its activity in Turkestan region in 1909–1913 Journal of Critical Reviews. – 2020. Volume: 7. Issue: 3. Pp. 451-454.
4. Саидбобоев З. Российские историко-географические и картографические источники о Средней Азии (первая половина XIX века) // “Социосфера”. 2017, №1. – С. 24-29.; Саидбобоев З. Историческая география. Учебник. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Чулпана, 2011. – 224 с.
5. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари [Матн] Ю. Скайлер. Кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи З.А. Саидбобоев. – Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2019.
6. Ўзбекистон ССР тарихи. Т. 2. – Тошкент: «Фан», 1971.
7. Xoliqova R.E. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. “O‘zbekiston tarixi” fanidan o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2017.